

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

MUMINOVA PARVINA ILHOM QIZI

BANK MAJBURIYATLARI HISOB VA AUDITINI
TAKOMILLASHTIRISH

08.00.08 - Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent - 2026 yil

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
Economic Sciences**

Muminova Parvina Ilhom qizi

Bank majburiyatlari hisobi va auditini takomillashtirish.....3

Муминова Парвина Илхом кизи

Совершенствование учёта и аудита обязательств банка31

Muminova Parvina Ilhom kizi

Improvement of accounting and audit of bank liabilities.....63

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....68

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

MUMINOVA PARVINA ILHOM QIZI

BANK MAJBURIYATLARI HISOBI VA AUDITINI
TAKOMILLASHTIRISH

08.00.08 - Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent - 2026 yil

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Iqt3823 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va «Ziynet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Umarov Zafar Absamatovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Rizayev Nurbek Kadirovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Ibragimov Abdugapur Karimovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent filiali

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.1.23.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «10» 09 kuni soat 16⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100000, Toshkent shahri, I.Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-66; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: ilmiykengash@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1081 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent shahri, I.Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-66; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: admin@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «21» 08 kuni tarqatildi.

(2026-yil «21» 08 daqi 63 raqamli reestr bayonnomasi).



S.U. Mehmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

U.Y. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida bank majburiyatlari hisobi va auditi tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi, likvidlik holati va risklarga nisbatan ta'sirchanligini haqqoniy baholashda muhim axborot-analitik asos vazifasini bajaradi. Bank majburiyatlarining to'g'ri tan olinishi, baholanishi va moliyaviy hisobotlarda shaffof aks ettirilishi depozitlar, qarz mablag'lari, banklararo majburiyatlar hamda boshqa moliyaviy instrumentlar bo'yicha manfaatdor tomonlar ishonchini mustahkamlaydi. "IFRS 7 moliyaviy hisobot foydalanuvchilariga moliyaviy instrumentlarning subyekt moliyaviy holati va natijalari uchun ahamiyatini, shuningdek, ulardan kelib chiqadigan risklar xususiyati va darajasini baholash imkonini beruvchi ma'lumotlarni ochib berishni talab qiladi"¹. Shu nuqtayi nazardan, bank majburiyatlari auditi ichki nazorat tizimi, risklarni boshqarish sifati va hisobot ma'lumotlarining ishonchliligini mustaqil baholash orqali bank sektorining barqaror faoliyat yuritishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, global moliya bozorlarida bank majburiyatlari hisobi va auditining nazariy-uslubiy hamda amaliy jihatlarini ilmiy tadqiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Jahonda bank majburiyatlari hisobi va auditini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar bank sektorining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, hisobot ma'lumotlarining shaffofligi va ishonchliligini oshirish, shuningdek, moliyaviy risklarni o'z vaqtida aniqlash va baholashning nazariy-uslubiy asoslarini rivojlantirishga qaratilgan holda olib borilmoqda. Mazkur muammo doirasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari sifatida bank majburiyatlarini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida tan olish va baholashni takomillashtirish, depozit va qarz majburiyatlari bo'yicha audit dalillarining ishonchliligini oshirish, likvidlik va foiz risklarini hisob va audit jarayonlarida aks ettirish, ichki nazorat va komplayens tizimlarining samaradorligini baholash hamda raqamli bank xizmatlari sharoitida majburiyatlar auditini avtomatlashtirish masalalarini ko'rsatish mumkin.

O'zbekistonda bank majburiyatlari hisobi va auditini takomillashtirish bank-moliya tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. So'nggi yillarda tijorat banklarida Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS), xususan IFRS 9 standartini joriy etish, bank majburiyatlarini haqqoniy baholash, moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ishonchliligini oshirish, ichki va tashqi audit sifatini xalqaro audit standartlari asosida takomillashtirish hamda banklar faoliyatida risklarni boshqarish tizimini kuchaytirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, bank majburiyatlarini hisobga olish va audit qilish metodologiyasini xalqaro talablarga moslashtirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, auditorlik tekshiruvlari samaradorligini oshirish va investorlar ishonchini mustahkamlash mamlakat oldida turgan muhim vazifalar qatoriga kiradi. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirish tijorat banklarida majburiyatlar hisobi va

¹ IFRS 7 Financial Instruments: Disclosures. - <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ifrs-7-financial-instruments-disclosures/>

auditini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, riskka asoslangan audit yondashuvlarini amaliyotga keng joriy etish, majburiyatlarni baholashning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshirishni talab etadi. Ushbu holatlar bank majburiyatlari hisobi va auditini takomillashtirish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-son ““Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida”, 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”, 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash yili Davlat dasturi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori va ushbu sohadagi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bank majburiyatlari hisobi va auditini tashkil etish hamda takomillashtirish masalalari iqtisodchi olimlarning doimiy e‘tibor markazida bo‘lib kelgan. Jumladan, xorijlik iqtisodchi olimlardan Stiglitz J.E., Rosengard J.K., Rose P.S., Mishkin F.S., Sinkey J.F., Weygandt J.J., Warfield T.D., Sheremet A.D., Kovalev V.V., Efimova O.V., Podolskiy V.I., Ozili P.K., Nicoletti A.K., Rempoutsika L., Sintin N., Lim C.H., Paul T.S., Kashanova O.Yu., Dunaeva V.I. va boshqa olimlar tomonidan bank majburiyatlarini boshqarish, hisobga olish va audit qilish masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan².

²Stiglitz J.E., Rosengard J.K. Economics of the Public Sector. – 4th ed. – New York: W.W. Norton & Company, 2015. – 960 p.; Rose P.S., Hudgins S.C. Bank Management and Financial Services. – 10th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2013. – 672 p.; Mishkin F.S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. – 13th ed. – Harlow: Pearson Education Limited, 2021. – 720 p.; Sinkey J.F. Commercial Bank Financial Management in the Financial Services Industry. – 6th ed. – New Jersey: Prentice Hall, 2002. – 920 p.; Sheremet A.D. Audit. – 8-e izd. – Moskva: INFRA-M, 2021. – 448 s.; Kovalev V.V. Finansoviy analiz: metodi i protseduri. – Moskva: Finansi i statistika, 2019. – 560 s.; Efimova O.V. Finansoviy analiz. – Moskva: Omega-L, 2018. – 399 s.; Podolskiy V.I. Audit. – Moskva: YuNITI-DANA, 2020. – 687 s.; Ozili P.K. Bank Loan Loss Provisions, Income Smoothing, Signalling and Procyclicality in African Banks: PhD Thesis. – University of Essex. – Colchester, 2017. – 273 p.; Nicoletti A.K. The Effects of Bank Regulators and External Auditors on Loan Loss Provisions: Doctoral Research Paper (dissertation chapter). – Ohio State University. – Columbus, 2016.; Rempoutsika L. Bank Transparency, Loan Loss Provisions and Financial Stability: PhD Thesis. – University of St Andrews. – St Andrews, 2022. – 284 p.; Sintin N. Banking

Bank majburiyatlarining iqtisodiy mohiyati, ularni hisobga olish va auditdan o'tkazish, moliyaviy risklarni boshqarish hamda xalqaro standartlarni joriy etish bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar mahalliy olimlardan Abdullayeva Sh. Z., Isakov J.Y., Omonov A.A., Qoraliyev T.M., Umarov Z.A., Mexmonov S.U., Ibragimov A.K., Avlokulov A.Z., Rahimov A.M., Abdullayev Z.A., Muydinov B.N., Maxmudov S.Q., Ochilov F.Sh., Oromidinov M.P., Sayfutdinov B.N. va boshqalar³ tomonidan olib borilgan.

Mazkur tadqiqotlarda tijorat banklari majburiyatlarini hisobga olish va auditdan o'tkazishning nazariy hamda amaliy jihatlari yoritilgan bo'lsada, bank majburiyatlarini xalqaro standartlar asosida baholash, riskka asoslangan audit mexanizmlarini takomillashtirish, raqamli texnologiyalar asosida monitoring qilish va majburiyatlar tarkibini optimallashtirish masalalari alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o'rganilmagan. Shu bilan birga, bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar va xalqaro standartlar talablarining kuchayib borishi mazkur mavzuda ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligini belgilaydi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini xalqaro standartlar hamda ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tijorat banklarida majburiyatlar hisobi nazariy-uslubiy asoslarini tadqiq qilish;
tijorat banklarida majburiyatlar hisobini yuritish amaliyotining amaldagi holatini tahlil qilish;

Performance, Accounting Transparency and IFRS Application: Doctoral Thesis. – "1 Decembrie 1918" University of Alba Iulia. – Alba Iulia, 2023. – 312 p.; Lim C.H. Essays on Bank Accounting, Loan Loss Provisions and Debt Contracting: PhD Thesis. – University of Manchester. – Manchester, 2012. – 235 p.; Paul T.S. Transparency and Safe Debt Creation: PhD Dissertation. – University of Pennsylvania. – Philadelphia (PA), 2021. – 66 p.; Kashanova O.Yu. Vnutrenniy audit v kommercheskom banke: dis. kand. ekon. nauk. – Moskva, 2002. – 210 s.; Dunaeva V.I. Vnutrenniy audit v kommercheskom banke: dis. kand. ekon. nauk. – Moskva, 2001. – 195 s.

³Abdullayeva Sh. Z. Bank ishi. Darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2017. – 732 b.; Isakov J.Y. Bank risklari. O'quv qo'llanma. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2017. – 100 b.; Omonov A., Qoraliyev T.M. Babklarda buxgalteriya hisobi. Darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2014. – 241 b.; Mehmonov S.U. Byudjet tashkilotlarida ichki audit faoliyatining nazariy hamda amaliy jihatlari // Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansi. 2015. №10.; Z.A.Umarov, A.K.Ibragimov, A.Z.Avlokulov, A.M.Rahimov – Bank auditi metodologiyasi / Darslik – T.: «Nihol print» OK, 2022. – 480 b.; Umarov Z.A., Ibragimov A.K., Rizaev N.K., Marpatov M.D. Banklarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Darslik / – T.: «Iqtisod-Moliya», 2019 yil, - 516 b.; Abdullaev Z.A. Tijorat banklari faoliyatini soliqqa tortishni takomillashtirish: iqtisod fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2020.; Muydinov B.N. Aksiyadorlik jamiyatlarida bank kreditlari bo'yicha operatsiyalar hisobi va auditini takomillashtirish: i.f.n. dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2002. – 22 b.; Maxmudov S.Q. Aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlar hisobi va tahlilini takomillashtirish (ip-yigiruv korxonalar misolida): i.f.n. dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2006. – 22 b.; Sayfutdinov B.N. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotni tuzish va auditini takomillashtirish. PhD dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2023. – 59 b.; Oromidinov M.P. "Tijorat banklarida ichki auditni takomillashtirish" PhD dissertatsiya avtoreferati. –T.: 2025; Ochilov F.Sh. «Aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlar hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish» DSc dissertatsiya avtoreferati. –T.: 2025

majburiyatlari tarkibi va dinamikasining moliyaviy ko'rsatkichlarga ta'sirini baholash;

bank majburiyatlari auditini tashkil etish va amalga oshirishni o'rganish;

majburiyatlar auditida riskka asoslangan yondashuvni tadqiq etish;

majburiyatlarni ekonometrik modellar asosida tahlil qilish va prognozlash;

bank majburiyatlari hisobi va auditini MHXS hamda Basel talablari asosida takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida tijorat banklarida majburiyatlarni hisobga olish va ichki auditdan o'tkazish bilan bog'liq jarayonlar, "Asakabank" AJ faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida tijorat banklarida majburiyatlar hisobi va ichki auditini tashkil etish hamda takomillashtirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada guruhlash, taqqoslash, ilmiy mushohada, iqtisodiy-statistik tahlil, induksiya va deduksiya, ekonometrik modellashtirish, ekspert baholash, SWOT-tahlil hamda tadqiqot natijalarini umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'zini o'zi band qilgan shaxslarning bank kartalari bilan bog'liq majburiyatlarini buxgalteriya hisobida alohida va shaffof aks ettirish maqsadida 22621 - "O'zini o'zi band qilgan shaxslarning bank kartalari bo'yicha majburiyatlari" nomli maxsus balans hisobvarag'ini joriy etish taklifi asoslangan;

tijorat banklarida mijozlarning "yashil energiya" loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lari harakati ustidan maqsadli nazoratni kuchaytirish, ularning manbasi va sarflanish yo'nalishlarini alohida hisobda yuritish maqsadida 22648 - "Mijozlarning yashil energiya loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha mablag'lari" balans hisobvarag'ini yuritish taklifi asoslangan;

majburiyatlar auditining samaradorligini oshirish maqsadida audit jarayonining rejalashtirish, dalil to'plash, baholash va yakuniy xulosa berish bosqichlarida ichki auditorlar hamda manfaatdor tomonlar o'rtasida axborot almashinuvining izchilligi, tezkorligi va ishonchliligini ta'minlovchi kommunikatsiya mexanizmi taklif etilgan;

solliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha majburiyatlar auditining sifatini oshirish, hisob-kitoblar to'g'riligi va soliq xavflarini xolis baholash maqsadida mazkur audit jarayoniga mustaqil ekspert - soliq maslahatchisini jalb etishning maqsadga muvofiqligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bank majburiyatlari hisobini yuritishda milliy buxgalteriya hisobi standartlari va Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) talablari o'rtasidagi tafovutlar tizimli ravishda tahlil qilinib, ularni muvofiqlashtirish mexanizmi ishlab chiqilgan;

bank majburiyatlari auditida risk omillarini baholash va audit amallarini rejalashtirishning takomillashtirilgan yondashuvi ishlab chiqilgan;

barcha turdagi depozilarni noxosilaviy moliyaviy vositalar sifatida tasniflash va amortizatsiyalanadigan qiymat bo'yicha hisob registralarida aks ettirish taklif berilgan;

bank majburiyatlari dinamikasini ekonometrik modellar asosida prognozlash orqali boshqaruv qarorlarini qabul qilish mexanizmlari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan ilmiy yondashuvlar va usullarning asoslanganligi, tadqiqot jarayonida xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar, xalqaro standartlar hamda ilg'or tajribalar natijalaridan foydalanilganligi, tahlillar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Milliy statistika qo'mitasi va tijorat banklari amaliy ma'lumotlari asosida amalga oshirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar tijorat banklarida majburiyatlar hisobi va auditining nazariy hamda tashkiliy-uslubiy jihatlarini xalqaro amaliyot tajribalaridan kelib chiqqan holda takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan tijorat banklarida majburiyatlar hisobini yuritish, auditni tashkil etish, moliyaviy risklarni baholash, likvidlikni boshqarish hamda moliyaviy hisobotlar ishonchliligini oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bank majburiyatlari hisobi va auditini xalqaro standartlar hamda ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

o'zini o'zi band qilgan shaxslarning bank kartalari bilan bog'liq majburiyatlarini buxgalteriya hisobida alohida va shaffof aks ettirish maqsadida 22621 - "O'zini o'zi band qilgan shaxslarning bank kartalari bo'yicha majburiyatlari" nomli maxsus balans hisobvarag'ini joriy etish taklifi "Asakabank" AJ amaliyotiga joriy etilgan ("Asakabank" AJning 2026-yil 1-apreldagi №19-27/269-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida o'zini o'zi band qilgan shaxslar bilan hisob-kitoblarni yuritish tizimi takomillashtirilgan hamda bank majburiyatlarini hisobga olish sifati oshirilgan, shuningdek, 2026-yilning 1-yanvar holatiga bank tomonidan o'zini o'zi band qilgan shaxslarga 10526 dona bank kartalari emissiya qilinib, bankning ular oldidagi majburiyatlari hajmi 1,3 mlrd. so'mni tashkil etgan;

tijorat banklarida mijozlarning "yashil energiya" loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lari harakati ustidan maqsadli nazoratni kuchaytirish, ularning manbasi va sarflanish yo'nalishlarini alohida hisobda yuritish maqsadida 22648 - "Mijozlarning yashil energiya loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha mablag'lari" balans hisobvarag'ini yuritish taklifi "Asakabank" AJ faoliyatiga tatbiq etilgan ("Asakabank" AJning 2026-yil 1-apreldagi №19-27/269-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida yashil moliyalashtirish mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish imkoniyati yaratilgan, shuningdek, hisobvaraqlar orqali "yashil energiya" loyihalari uchun ajratilgan kredit va investisiya mablag'larini alohida hisobga olish, ularning maqsadli sarflanishini monitoring qilish hamda bankda "yashil moliyalashtirish" portfelini shakllantirish imkoniyati yaratilgan;

majburiyatlar auditining samaradorligini oshirish maqsadida audit jarayonining rejalashtirish, dalil to'plash, baholash va yakuniy xulosa berish bosqichlarida ichki

auditorlar hamda manfaatdor tomonlar o'rtasida axborot almashinuvining izchilligi, tezkorligi va ishonchliligini ta'minlovchi kommunikatsiya mexanizmiga oid taklifi "Asakabank" AJ faoliyatiga tatbiq etilgan ("Asakabank" AJning 2026-yil 1-apreldagi №19-27/269-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida audit jarayonida axborot almashinuvini yaxshilash, audit natijalarining ishonchliligini oshirish va ichki audit samaradorligini kuchaytirishga xizmat qilgan;

solliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha majburiyatlar auditining sifatini oshirish, hisob-kitoblar to'g'riligi va soliq xavflarini xolis baholash maqsadida mazkur audit jarayoniga mustaqil ekspert - soliq maslahatchisini jalb etish taklifi "Asakabank" AJ faoliyatiga tatbiq etilgan ("Asakabank" AJning 2026-yil 1-apreldagi №19-27/269-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida soliq risklarini kamaytirish, soliq hisob-kitoblarining to'g'riligini baholash va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshirish imkoniyati yaratilgan, shuningdek, 2025-yilda bank tomonidan hisoblangan soliqlardan 5 foiz miqdorida kam to'lash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola hamda xorijiy ilmiy jurnallarda 8 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiya 153 sahifada bayon etilgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, tadqiqotning vazifalari, tadqiqotning ob'ekti, tadqiqotning predmeti, tadqiqotning usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqotning amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatyasi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining «**Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditining nazariy asoslari**» nomli birinchi bobida bank majburiyatlari hisobining mohiyati va ahamiyati, bank majburiyatlari hisobi va ichki auditining nazariy va me'yoriy-huquqiy asoslari, bank majburiyatlari hisobi va ichki auditinining xorij tajribasi o'rganilgan.

Tijorat banklari faoliyatining barqarorligi va samaradorligi, avvalo, ularning resurs bazasini shakllantirish darajasiga bevosita bog'liq hisoblanadi. Bank

resurslarining asosiy qismini majburiyatlar tashkil etib, ular bank passivlarining muhim tarkibiy elementi sifatida aktiv operatsiyalarni moliyalashtirishning asosiy manbai vazifasini bajaradi.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari passivlari tarkibi⁴

Ko'rsatkichlar nomi	2021 y.		2022 y.		2023 y.		2024 y.		2025 y.		O'zgarishi	
	trln. so'm	% da	trln. so'm	% da	trln. so'm	% da	trln. so'm	% da	trln. so'm	% da	trln. so'm	% da
Majburiyatlar	374,0	84,1	477,2	85,7	555,1	85,1	654,5	85,1	789,4	85,4	415,4	111,1
Kapital	70,9	15,9	79,6	14,3	97,1	14,9	114,8	14,9	135,3	14,6	64,4	90,8
Passivlar	444,9	100,0	556,7	100,0	652,2	100,0	769,3	100,0	924,8	100,0	479,9	107,9

2021-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari passivlari hajmi barqaror o'sib, 444,9 trln so'mdan 924,8 trln so'mgacha yoki 107,9 foizga oshgan. Bank passivlari tarkibida majburiyatlar ustuvorligi saqlanib qolib, ularning ulushi 84,1-85,7 foizni tashkil etgan, bu esa aktiv operatsiyalarni moliyalashtirishning asosiy manbai jalb qilingan mablag'lar ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bank kapitali hajmi 90,8 foizga o'sgan bo'lsa-da, uning passivlardagi ulushi 14,3-15,9 foiz darajasida saqlanib qolgan. Bu holat tijorat banklari faoliyatining asosan jalb qilingan resurslar hisobiga rivojlanayotganligini tasdiqlaydi.


Bank majburiyatlari hisobi bankning moliyaviy faoliyatida asosiy o'rin tutadi, chunki u bankning resurs bazasini shakllantirish, likvidlikni ta'minlash va moliyaviy barqarorlikni saqlashning muhim vositasidir. Bank majburiyatlarining nafaqat bank buxgalteriya hisobotlaridagi ahamiyati, balki moliya bozoridagi ma'lum davlatlar bank mavqeyini ham belgilab beruvchi asosiy ko'rsatkichlardan biri, deb ayta olamiz.

MHXS 9 standartiga muvofiq moliyaviy majburiyatlar dastlab haqiqiy qiymatda e'tirof etilib, keyinchalik samarali foiz stavkasi usuli asosida amortizatsiyalangan qiymatda baholanadi. Mazkur yondashuv moliyaviy hisobotlarda majburiyatlar qiymatini haqqoniy aks ettirishga xizmat qiladi hamda milliy hisob amaliyotini xalqaro standartlarga moslashtirish zaruratini yuzaga keltiradi⁵. Shu bilan birga, bank majburiyatlari hisobi bankning resurs bazasini shakllantirish, likvidligini ta'minlash va moliyaviy risklarini boshqarishda muhim rol o'ynaydi.

Fikrimizcha, "bank majburiyatlari - bu bankning o'tgan operatsiyalari natijasida yuzaga kelgan, kelgusida iqtisodiy resurslarning chiqib ketishini talab qiluvchi hamda depozitlar, qarz mablag'lari, chiqarilgan qimmatli qog'ozlar, hisoblangan foizlar va boshqa moliyaviy instrumentlar bilan bog'liq majburiyatlar majmuasi bo'lib, ular bankning resurs bazasi, likvidligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim iqtisodiy kategoriyadir".

⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisoboti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

⁵ International Accounting Standards Board (IASB). IFRS 9 Financial Instruments. – London: IFRS Foundation, 2023. – 188 p.; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son qarori, 2020-yil 24-fevral.



1-rasm. Bank majburiyatlarining tuzilishi⁶

Bank majburiyatlariga depozitlar (mijozlarning omonatlari, hisobvaraqlaridagi mablag'lar), olingan kreditlar (Markaziy bankdan yoki boshqa moliya institutlaridan), qimmatli qog'ozlar chiqarish orqali jalb qilingan mablag'lar (obligatsiyalar va boshqalar) hamda hisob-kitob majburiyatlari (akkreditiv, kafolat, chek va boshqalar bo'yicha) kiradi.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari majburiyatlari tarkibi⁷

Majburiyatlar	2021 y.		2022 y.		2023 y.		2024 y.		2025 y.		O'zgarishi	
	trln. so'm	% da	trln. so'm	% da	trln. so'm	% da	trln. so'm	% da	trln. so'm	% da	trln. so'm	% da
Depozitlar	156,2	41,8	216,7	45,4	241,7	43,5	308,7	47,2	417,3	52,9	261,1	167,1
Markaziy bankning hisobvaraqlari	0,7	0,2	0,8	0,2	1,3	0,2	1,7	0,3	1,1	0,1	0,4	62,1
Boshqa banklarning mablag'lari - rezidentlar	13,3	3,6	18,8	3,9	24,6	4,4	25,0	3,8	29,0	3,7	15,7	118,2
Boshqa banklarning mablag'lari - norezidentlar	4,7	1,2	22,8	4,8	20,1	3,6	16,4	2,5	18,1	2,3	13,4	287,2
Olingan kreditlar va lizing	173,8	46,5	186,6	39,1	224,4	40,4	234,7	35,9	247,7	31,4	73,9	42,6
Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar	10,6	2,8	10,9	2,3	13,2	2,4	29,1	4,4	37,2	4,7	26,6	251,0
Subordinar qarzlar	4,2	1,1	6,6	1,4	9,7	1,7	11,3	1,7	12,0	1,5	7,7	181,8
To'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar	4,0	1,1	5,5	1,1	8,1	1,5	9,8	1,5	9,6	1,2	5,6	142,2
Boshqa majburiyatlar	6,6	1,8	8,4	1,8	12,1	2,2	17,8	2,7	17,4	2,2	10,9	165,2
Jami majburiyatlar	374,0	100,0	477,2	100,0	555,1	100,0	654,5	100,0	789,4	100,0	415,4	111,1

2021-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari majburiyatlari hajmi 374,0 trln so'mdan 789,4 trln so'mgacha yoki 111,1 foizga o'sgan. Majburiyatlar tarkibida depozitlar ulushi 41,8 foizdan 52,9 foizgacha oshgan bo'lib, bu bank tizimida ichki resurs bazasining mustahkamlanayotganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, olingan kreditlar va lizing majburiyatlari ulushining 46,5 foizdan 31,4 foizgacha kamayishi tashqi moliyalashtirish manbalariga qaramlikning pasayib, resurslar diversifikatsiyasi kuchayganligini anglatadi. Norezident banklar mablag'lari, chiqarilgan qimmatli qog'ozlar va subordinar qarzlar hajmining o'sishi esa tijorat banklarining xalqaro moliya bozorlari bilan integratsiyasi va uzoq muddatli resurslarni jalb qilish imkoniyatlari kengayib borayotganligini tasdiqlaydi.

⁶Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisoboti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

Bank majburiyatlari hisobi va ularni boshqarish masalalari tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi, likvidligi va to'lovga qobiliyatini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda bank majburiyatlari tarkibiga depozitlar, banklararo qarzlar, chiqarilgan qimmatli qog'ozlar va boshqa jalb qilingan moliyaviy resurslar kiritilishi e'tirof etilgan bo'lsa-da, ularning tasnifi va tarkibi mamlakatlar hamda tartibga solish tizimlari bo'yicha farqlanishi kuzatiladi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga muvofiq, moliyaviy majburiyatlar boshqa subyektga pul mablag'lari yoki boshqa moliyaviy aktivlarni topshirish bo'yicha shartnomaviy majburiyat sifatida e'tirof etiladi⁸. Shu jihatdan bank majburiyatlari bankning nafaqat moliyalashtirish manbai, balki uning likvidligi, risk darajasi va moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim iqtisodiy kategoriya hisoblanadi.

Bank majburiyatlari hisobi va auditining me'yoriy-huquqiy asoslari bank tizimining barqaror ishlashi, moliyaviy intizomni ta'minlash hamda banklar faoliyati ustidan samarali nazoratni amalga oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Me'yoriy hujjat	Qisqacha mazmuni	Ahamiyati
O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni	Buxgalteriya hisobi yuritishning umumiy qoidalari va tamoyillari	Banklarda hisob yuritishning asosiy qonuniy bazasi
O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni	Bank faoliyatining huquqiy asoslari, shu jumladan majburiyatlar va aktivlar tarkibi	Bank majburiyatlarining huquqiy maqomini belgilaydi
O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki nizomlari va yo'riqnomalari	Bank hisoblari, depozitlar, majburiyatlar hisobini yuritish tartibi	Amaliy buxgalteriya tartibini belgilaydi
Milliy buxgalteriya standartlari (NBS)	Moliyaviy hisobot tuzish va majburiyatlarni tan olish me'yorlari	Milliy hisob standartlari bo'yicha majburiyatlar hisobini reglamentlaydi
O'zbekiston Respublikasi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni	Auditorlik faoliyati va auditor huquqlarini belgilaydi	Bank auditini o'tkazishning qonuniy bazasi

2-rasm. O'zbekistonda bank majburiyatlari hisobi va auditini tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar⁹

Bank majburiyatlari hisobi va auditining me'yoriy-huquqiy bazasi ikki darajali - milliy va xalqaro darajalardan iborat. Ularning uyg'unligi moliyaviy hisobotning ishonchliligini oshiradi, bank tizimining shaffofligini ta'minlaydi, investorlarga ishonch beradi, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi.

⁸International Accounting Standards Board (IASB). IFRS 9 Financial Instruments.-London:IFRS Foundation, 2023.

⁹O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari va Markaziy bank me'yoriy hujjatlari asosida muallif ishlanmasi

Xalqaro standart	IFRS (MSFO) –Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari	Mazmuni	Ahamiyati	Majburiyatlarni tan olish, baholash va hisobotda aks ettirish tamoyillari
				Xalqaro amaliyotga mos hisob yuritish imkonini beradi
				Moliyaviy majburiyatlarni tasniflash va baholash
	IAS 32 va IAS 39 / IFRS 9			Bank majburiyatlarining moliyaviy asbob sifatidagi hisobini belgilaydi
				Auditorlik tekshiruvining umumiy qoidalari
	ISA – Xalqaro audit standartlari			Bank majburiyatlari auditida qo‘llaniladi, xususan ISA 315, 330, 540
				Bank kapitali va majburiyatlari bo‘yicha minimal talablar
				Basel kelishuvlari (Basel III)

3-rasm. Bank majburiyatlari hisobi va auditini tartibga soluvchi xalqaro me'yoriy-huquqiy asoslar¹⁰

Mamlakatda bu boradagi qonunchilik so'nggi yillarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) va xalqaro audit standartlari (AXS) talablari bilan uyg'unlashtirish yo'nalishida takomillashtirilmoqda. Shu bilan birga, amaliyotda qator metodologik muammolar saqlanib qolmoqda, xususan, ayrim normativ hujjatlarning xalqaro standartlar bilan to'liq mos kelmasligi, uslubiy qo'llanmalar yetishmasligi, hamda raqamli texnologiyalarning yetarli darajada joriy etilmaganligi shular jumlasidandir.

Bank majburiyatlari bank faoliyatining moliyaviy asosini tashkil etib, ular orqali banklarning resurs bazasi shakllanadi, kreditlash jarayoni moliyalashtiriladi va umumiy likvidlik darajasi ta'minlanadi.

Jahon moliya tizimida bank majburiyatlarini hisobga olish va ularning auditini takomillashtirish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) asosida yuritilayotgan hisob siyosati hamda mustaqil tashqi audit mexanizmlari bank tizimining shaffofligi va barqarorligini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Hisob standartlari	 AQSh (US GAAP)	 Yevropa Ittifoqi (IFRS)	 Rossiya (Milliy + IFRS)	 Janubiy Koreya (IFRS)
Audit yondashuvi	Mustaqil tashqi audit, risk tahlili	Yevropa Markaziy Banki nazorati	Ichki va tashqi audit kombinatsiyasi	Risklarni baholash va xedj mexanizmlari
Afzalliklar	Risklarni chuqur tahlil qiladi	Shaffoflik va solishtirish imkoni	Bosqichma-bosqich integratsiya	Innovatsion yondashuv
Kamchiliklar	Murakkab tartib va yuqori xarajat	Moslashuv xarajatlari yuqori	To'liq moslashmagan	Yuqori texnologik talablar

4-rasm. Banklarda majburiyatlar hisobi va auditini takomillashtirish bo'yicha chet mamlakatlar tajribalari tahlili¹¹

¹⁰IFRS Foundation, IAASB va Basel Committee on Banking Supervision hujjatlari asosida muallif ishlanmasi.

¹¹IFRS Foundation, European Banking Authority, Federal Reserve System, Office of the Comptroller of the

Xalqaro amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, AQSh bank tizimida audit va nazorat jarayonlari riskga asoslangan yondashuvga tayangan holda tashkil etiladi hamda ichki nazorat tizimlarining samaradorligini baholashga alohida e'tibor qaratiladi. Yevropa Ittifoqida esa MHXS (IFRS) asosida moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va taqqoslanuvchanligini ta'minlash hamda prudensial nazorat organlari talablariga muvofiq axborotlarni oshkor etish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Rossiya amaliyotida milliy hisob standartlarini MHXSga moslashtirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

«**Tijorat banklari majburiyatlari hisobining amaliyotdagi tahlili**» deb nomlangan dissertatsiya ishining ikkinchi bobida tijorat banklari qarz mablag'lari hisobi o'rganilgan, banklarda jalb qilingan mablag'lar hisobini tashkil qilish, tijorat banklarida shartli majburiyatlar hisobi tadqiq etilgan.

Tijorat banklari faoliyatining asosiy moliyaviy manbalaridan biri qarz mablag'laridir. Ushbu mablag'lar bankning o'z resurs bazasini kengaytirish, kreditlash hajmini oshirish hamda likvidlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Qarz mablag'lari hisobining to'g'ri tashkil etilishi bankning moliyaviy barqarorligi, risklarni boshqarish samaradorligi va investitsion imkoniyatlarini belgilaydi.

Tijorat banklari faoliyatida jalb qilingan mablag'lar aktiv operatsiyalarni moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Xususan, davlat ulushiga ega yirik tijorat banklaridan biri bo'lgan «Asakabank» AJ faoliyatida ham depozitlar va boshqa jalb qilingan mablag'lar resurs bazasining muhim qismini tashkil etadi.

3-jadval

«Asakabank» AJ moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili (mlrd. so'm)¹²

Ko'rsatkichlar	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2025-y.	O'zgarishi
Jami aktivlar	49 394,6	50 246,5	56 826,1	57 013,7	61 017,7	11 623,1
Kreditlar	37 695,6	36 323,8	40 380,9	40 538,6	43 067,3	5 371,7
Mijozlar mablag'i	8 542,1	11 811,2	12 247,2	13 661,1	19 507,2	10 965,1
Jami majburiyatlar	44 150,3	44 617,9	50 966,1	50 255,8	54 136,3	9 986,0
Kapital	5 244,3	5 628,6	5 860,1	6 757,9	6 881,4	1 637,1
Sof foyda (zarar)	139,9	165,8	121,0	-439,1	20,8	-119,1

3-jadval ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, «Asakabank» AJning 2021-2025 yillardagi moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili bank aktivlari, majburiyatlari va resurs bazasining barqaror o'sish tendentsiyasiga ega ekanligini ko'rsatdi. Xususan, jami aktivlar 23,5 foizga, mijozlar mablag'lari esa 129,0 foizga o'sib, bankning resurs bazasi mustahkamlanganligini va aktiv operatsiyalarni moliyalashtirish imkoniyatlari kengayganligini tasdiqladi. Kreditlar ulushining pasayishi aktivlarni diversifikatsiya qilish siyosati amalga oshirilganligini ko'rsatadi. Biroq, 2024 yilda qayd etilgan zarar va 2025 yilda foydaning past darajada tiklanganligi bank faoliyati samaradorligini oshirish, aktivlar sifati ustidan nazoratni kuchaytirish hamda resurslardan foydalanish samaradorligini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Currency (OCC) hamda xalqaro ilmiy manbalar asosida muallif ishlanmasi.

¹²«Asakabank» AJ moliyaviy hisobotlari asosida muallif hisob-kitoblari

4-jadval

«Asakabank» AJ majburiyatlari tahlili (mln. so'm)¹³

Majburiyatlar	2021 y.		2022 y.		2023 y.		2024 y.		2025 y.		O'zgarishi	
	mlrd. so'm	% da	mlrd. so'm	% da	mlrd. so'm	% da	mlrd. so'm	% da	mlrd. so'm	% da	mlrd. so'm	% da
Markaziy bank va Hukumat oldidagi qarzidorlik	8781,6	19,9	8496	19,0	9699,2	19,0	8532	17,0	8219,7	15,2	-561,9	-6,4
Kredit tashkilotlarining mablag'lari	1804,3	4,1	1250,6	2,8	2464,4	4,8	3189,3	6,3	4293,6	7,9	2489,3	138
Mijozlarning mablag'lari	8542,1	19,3	11811,1	26,5	12247,2	24,0	13661,1	27,2	19573,2	36,2	11031	129,1
Qarz qimmatli qog'ozlari	1257,8	2,8	962,6	2,2	212,7	0,4	162,3	0,3	251,2	0,5	-1007	-80
Boshqa qarz mablag'lari	23116,6	52,4	20496,4	45,9	24699,9	48,5	24497,2	48,7	21591	39,9	-1526	-6,6
Foyda solig'i bo'yicha majburiyatlar	321,4	0,7	127,8	0,3	168,8	0,3	0	0,0	6,9	0,0	-314,5	-97,9
Boshqa majburiyatlar	326,5	0,7	1473,4	3,3	1473,9	2,9	213,9	0,4	200,7	0,4	-125,8	-38,5
Jami majburiyatlar	44150,3	100,0	44617,9	100,0	50966,1	100,0	50255,8	100,0	54136,3	100,0	9986	22,62

«Asakabank» AJ majburiyatlari tarkibining 2021-2025 yillardagi tahlili bank resurs bazasining diversifikatsiyalashuvi va ichki moliyalashtirish manbalari ahamiyati ortib borayotganligini ko'rsatdi. Jami majburiyatlar 22,6 foizga o'sgan bo'lsa, mijozlar mablag'lari 129,1 foizga ko'payib, ularning jami majburiyatlardagi ulushi 19,3 foizdan 36,2 foizgacha oshgan. Shu bilan birga, boshqa qarz mablag'lari hamda Markaziy bank va Hukumat oldidagi qarzidorlik ulushining kamayishi bankning tashqi va markazlashgan resurslarga qaramligi pasayganligini anglatadi. Kredit tashkilotlari mablag'lari ulushining o'sishi banklararo moliya bozorlari bilan hamkorlik kengayganligini ko'rsatsa, qarz qimmatli qog'ozlari ulushining qisqarishi kapital bozori instrumentlaridan foydalanish faolligi pasayganligini tasdiqlaydi. Umuman olganda, bankning majburiyatlar tarkibida barqaror ichki resurs manbalarining ulushi ortib, aktiv operatsiyalarni moliyalashtirish imkoniyatlari kengaygan.

Zamonaviy bank tizimida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, risklarni samarali boshqarish va strategik qarorlar qabul qilishda ekonometrik modellashirish muhim ahamiyat kasb etadi. Majburiyatlar dinamikasini chuqur iqtisodiy tahlil qilish va ilmiy asoslangan prognoz modellarini qo'llash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

5-jadval

Majburiyatlar bo'yicha ARIMA modeli diagnostikasi¹⁴

Ko'rsatkich	Natija	Izoh
Tanlangan model	ARIMA(0,1,0) drift bilan	Trendli vaqt qatori uchun mos model
Drift koeffitsienti	991,83	Majburiyatlar har chorakda o'rtacha 991,83 mlrd so'mga oshgan
AIC	410,55	Model sifatini baholovchi mezon
BIC	412,73	Modelda ortiqcha parametrlar yo'qligini ko'rsatadi
ADF testi	$p \approx 0,000$	Birinchi farqdan keyin qator statsionar
Ljung-Box testi	$p = 0,812$	Qoldiqlarda avtokorrelyatsiya yo'q
Jarque-Bera testi	$p = 0,534$	Qoldiqlar normal taqsimotga yaqin

¹³«Asakabank» AJ moliyaviy hisobotlari asosida muallif hisob-kitoblari

¹⁴«Asakabank» AJ ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari (EViews dasturi natijalari).

5-jadval ma'lumotlari asosida bank majburiyatlari dinamikasini prognozlash uchun tuzilgan ARIMA modelining adekvatligi va statistik ishonchliligi baholandi. Tahlil natijalariga ko'ra, majburiyatlar qatori uchun ARIMA(0,1,0) driftli modeli eng maqbul model sifatida tanlangan. Mazkur model vaqt qatorida barqaror o'sish tendensiyasi mavjudligini hamda kelgusidagi o'zgarishlar asosan trend omili ta'sirida shakllanishini ko'rsatadi.

Model tenglamasi: $\Delta Y_t = 991,83 + \varepsilon_t$

Bu yerda:

Y_t - bank majburiyatlari hajmi;

ΔY_t - majburiyatlarning choraklik o'zgarishi;

991,83 - majburiyatlarning har chorakda o'rtacha o'sish miqdori;

ε_t - tasodifiy xatolik.

Modelda aniqlangan 991,83 mlrd so'mlik drift koeffitsienti bank majburiyatlari hajmi har chorakda o'rtacha 991,83 mlrd so'mga ortib borganligini anglatadi. Bu holat bank resurs bazasining kengayib borayotganligini hamda jalb qilingan mablag'lar hajmida ijobiy dinamika aks ettiradi.

Modelning statistik sifat ko'rsatkichlari ham uning ishonchliligini tasdiqlaydi. Xususan, AIC (410,55) va BIC (412,73) mezonlarining nisbatan past qiymatlari modelda ortiqcha parametrlar mavjud emasligini va tanlangan modelning optimal ekanligini ko'rsatadi. Augmented Dickey-Fuller (ADF) testi natijalariga ko'ra p-qiymatining 0,000 ga yaqin bo'lishi birinchi differensiallashdan so'ng vaqt qatorining statsionar holatga kelganligini tasdiqlaydi. Bu esa ARIMA modelini qo'llashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, Ljung-Box testi natijasida $p=0,812$ qiymatining aniqlanishi model qoldiqlarida statistik ahamiyatga ega avtokorrelyatsiya mavjud emasligini ko'rsatadi. Demak, model majburiyatlar dinamikasidagi asosiy qonuniyatlarni yetarli darajada aks ettirgan. Jarque-Bera testi bo'yicha $p=0,534$ natijasi esa qoldiqlarning normal taqsimotga yaqin ekanligini bildirib, prognoz natijalarining statistik ishonchliligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, ARIMA(0,1,0) modeli bank majburiyatlari dinamikasini qisqa va o'rta muddatli prognozlash uchun statistik jihatdan adekvat model sifatida baholandi. Mazkur model asosida olingan prognoz natijalari bank majburiyatlari hajmining kelgusida ham o'sish tendensiyasini saqlab qolishini ko'rsatadi hamda bank resurs bazasini boshqarish, likvidlikni rejalashtirish va majburiyatlar bilan bog'liq risklarni monitoring qilishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

6-jadval

Majburiyatlari bo'yicha 2026-2030-yillar ARIMA prognozi, mlrd so'm¹⁵

Yil	Prognoz	95% pastki chegara	95% yuqori chegara
2026	57 316,44	46 395,09	68 237,79
2027	61 283,77	46 631,24	75 936,30
2028	65 251,11	47 640,96	82 861,26
2029	69 218,44	49 080,46	89 356,42
2030	73 185,78	50 803,67	95 567,89

¹⁵«Asakabank» AJning 2021–2025 yillardagi moliyaviy ko'rsatkichlari asosida muallif hisob-kitoblari (ARIMA modeli natijalari).

6-jadval ma'lumotlariga ko'ra, ARIMA modeli asosida "Asakabank" AJ majburiyatlari hajmining 2026-2030-yillarda barqaror o'sish tendensiyasini saqlab qolishi prognoz qilinmoqda. Prognoz natijalariga ko'ra, bank majburiyatlari hajmi 2026-yildagi 57 316,44 mlrd so'mdan 2030-yilda 73 185,78 mlrd so'mga yetishi kutilmoqda. Mazkur davr mobaynida majburiyatlar hajmining o'sishi 15 869,34 mlrd so'mni yoki qariyb 27,7 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda.

Prognoz natijalari bank resurs bazasining kengayishi va jalb qilingan mablag'lar hajmining ortib borishini ko'rsatadi. Bu holat bankning kreditlash salohiyatini oshirish, investitsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda iqtisodiyot tarmoqlarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilishi mumkin.

7-jadval

«Asakabank» AJ depozitlar tarkibi tahlili¹⁶

Depozitlar	2021 y.		2022 y.		2023 y.		2024 y.		2025 y.		O'zgarishi	
	mlrd. so'm	% da	mlrd. so'm	% da	mlrd. so'm	% da	mlrd. so'm	% da	mlrd. so'm	% da	mlrd. so'm	% da
Talab qilib olinguncha depozitlari	2400,3	28,1	2633,9	22,3	2302,5	18,8	2418	17,7	3425,3	17,5	1025	42,7
Muddatli depozitlar	4629,8	54,2	6200,8	52,5	6576,7	53,7	6994,5	51,2	9864,9	50,4	5235,1	113
Jamg'arma depozitlar	1512	17,7	2976,4	25,2	3368	27,5	4248,6	31,1	6283	32,1	4771	316
Mijozlarning mablag'lari	8542,1	100	11811,1	100	12247,2	100	13661,1	100	19573,2	100	11031,1	129

«Asakabank» AJ depozitlari tarkibining 2021-2025 yillardagi tahlili bankning depozit bazasi barqaror o'sganligini va resurslar tarkibining diversifikatsiyalashganligini ko'rsatdi. Mijozlar mablag'lari hajmi 129,0 foizga oshgan bo'lib, bu bankning resurs bazasi mustahkamlanganligini tasdiqlaydi. Muddatli depozitlar depozit portfelining asosiy qismini tashkil etgan bo'lsa, jamg'arma depozitlari eng yuqori o'sish sur'atini namoyon etib, ularning ulushi 17,7 foizdan 32,1 foizgacha ko'tarilgan. Talab qilib olinguncha depozitlar ulushining kamayishi bank resurslarining muddatlilik darajasi oshganligi va likvidlik risklarini boshqarish imkoniyatlari yaxshilanganligini ko'rsatadi. Depozitlar tarkibida barqaror va nisbatan arzon resurslar ulushining ortishi bankning aktiv operatsiyalarini samarali moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirgan.

So'nggi yillarda O'zbekistonda aholini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish, norasmiy bandlikni qisqartirish hamda fuqarolarning daromad manbalarini legallashtirish maqsadida o'zini o'zi band qilish instituti jadal rivojlanmoqda. Natijada o'zini o'zi band qilgan shaxslar soni keskin ortib, ular tomonidan amalga oshirilayotgan moliyaviy operatsiyalar hajmi ham yil sayin kengayib bormoqda. Mazkur jarayon bank xizmatlariga bo'lgan talabning ortishiga, xususan bank kartalari orqali amalga oshiriladigan hisob-kitob operatsiyalarining ko'payishiga sabab bo'lmoqda.

Amaldagi bank amaliyotida o'zini o'zi band qilgan shaxslarning bank kartalari bo'yicha mablag'lari, asosan, jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha

¹⁶«Asakabank» AJ moliyaviy hisobotlari asosida muallif hisob-kitoblari

depozitlari yoki bank kartalari bilan bog'liq umumiy majburiyatlar tarkibida hisobga olinadi. Natijada mazkur toifadagi mijozlarning bank operatsiyalari boshqa jismoniy shaxslarning operatsiyalari bilan umumlashtiriladi va ular bo'yicha alohida tahliliy axborot shakllantirilmaydi. Bu esa o'zini o'zi band qilgan shaxslarning moliyaviy faolligi, pul oqimlari va bank majburiyatlari tarkibidagi ulushini baholash imkoniyatlarini cheklaydi.

O'zini o'zi band qilgan shaxslarning bank kartalari bo'yicha majburiyatlari alohida hisobga olinmagani sababli ushbu toifadagi mijozlarning bank majburiyatlari tarkibidagi ulushini aniqlash murakkablashadi, bank mahsulotlarini segmentlar kesimida rivojlantirish imkoniyatlari cheklanadi, risklarni baholash va monitoring qilish sifati pasayadi, moliyaviy hisobotlarning tahliliy imkoniyatlari kamayadi, Markaziy bank va boshqa nazorat organlari uchun zarur statistik ma'lumotlarni shakllantirish qiyinlashadi.

Shuningdek, banklar tomonidan o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun maxsus kredit, mikroqarz, overdraft va raqamli moliyaviy xizmatlar taklif etilayotgan bir paytda, ular bo'yicha majburiyatlarni alohida hisobga olish boshqaruv qarorlarining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib, tadqiqot doirasida tijorat banklari hisobvaraqlar rejasiga 22621 - "O'zini o'zi band qilgan shaxslarning bank kartalari bo'yicha majburiyatlari" nomli alohida balans hisobvarag'ini kiritish taklif etiladi.

Mazkur hisobvaraqlarning joriy etilishi o'zini o'zi band qilgan shaxslarning bank kartalari bo'yicha mablag'larini alohida hisobga olish, ushbu segment bo'yicha bank majburiyatlarini aniq baholash, moliyaviy hisobotlarda axborotning analitik qiymatini oshirish, bank mahsulotlarini segmentlar kesimida rivojlantirish uchun ma'lumotlar bazasini shakllantirish, bank risklarini boshqarish samaradorligini oshirish, Markaziy bank uchun statistik hisobotlar sifatini yaxshilash kabilarga xizmat qiladi

Fikrimizcha, mazkur yondashuv bank majburiyatlari hisobini iqtisodiy mazmuniga ko'ra takomillashtirish, moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va axborot foydaliligini oshirish hamda banklarda mijozlar segmentatsiyasi asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Demak, 22621 - "O'zini o'zi band qilgan shaxslarning bank kartalari bo'yicha majburiyatlari" balans hisobvarag'ini joriy etish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif bank majburiyatlari hisobi metodologiyasini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, bank kartalari bilan bog'liq majburiyatlarni iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib alohida hisobga olish imkonini beradi. Mazkur ilmiy yangilikning asosiy jihati shundaki, unda o'zini o'zi band qilgan shaxslar bank tizimining alohida iqtisodiy subyekti sifatida e'tirof etilib, ular bo'yicha majburiyatlarni hisobga olishning yangi buxgalteriya mexanizmi taklif etiladi.

Quyida 22621 «O'zini o'zi band qilgan shaxslarning bank kartalari bo'yicha majburiyatlari» hisobvarag'i bo'yicha tranzaksion misollar ko'rib chiqamiz:

1) Karta chiqarish (emissiya) Balansda majburiyat hali yo'q, faqat off-balance ro'yxatga olish (90402 - «B-bank tomonidan muomalaga chiqarilgan jismoniy

shaxslarning bank kartalari») da ko'rsatiladi. O'tkazma: off-balance ichki qayd (90402 ↑).

2) Kartaga kassa orqali naqd tushumi 500 000 so'm

Dt 10111 «Amaliyot kassalaridagi naqd pullar» - 500 000

Kr 22621 «O'zini o'zi band qilgan shaxslar kartalari bo'yicha majburiyatlar» - 500 000

3) Depozitdan kartaga o'tkazma (mijozning 20606 muddatli/20406 jamg'arma yoki 20206 talab qilib olinadigan depozitidan). Boshlang'ich qayd tranzitda: Dt 23118 «Jismoniy shaxslar depozitlaridan bank kartalariga o'tkazilishi lozim bo'lgan mablag'lar bo'yicha tranzit»

Kr 20606/20406/20206 (manba turiga qarab)

Kartaga yakuniy tushirish: Dt 23118

Kr 22621

4) Savdo shoxobchasi orqali 120 000 so'mlik to'lov (bank o'zi ekvayer)

Karta majburiyati kamayadi, savdogarga o'tkazish majburiyati paydo bo'ladi:

Dt 22621 - 120 000

Kr 23510 «Savdo tashkilotlari hisobvaraqlariga o'tkazilishi lozim bo'lgan kartalardan kelib tushgan tushum» - 120 000

Savdogarning hisobvarafiga o'tkazilganda:

Dt 23510 - 120 000

Kr 20208 «Xususiy korxonalar ... talab qilib olinadigan depozitlari» (savdogar toifasiga qarab) - 120 000

5) Boshqa bank bankomatida naqd yechish 200 000 so'm

Mijoz kartasi bo'yicha majburiyat kamayadi, boshqa bankka qarzdorlik paydo bo'ladi: Dt 22621 - 200 000

Kr 21012 «Jismoniy shaxslarning bank kartalaridan berilgan naqd pullar bo'yicha boshqa banklarga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lar» - 200 000

Banklararo hisob-kitobda to'langanda: Dt 21012 - 200 000

Kr 10301/10501 (tegishli vakillik hisobvarag'idan chiqim) - 200 000

6) Karta egasi o'z depozitiga transfer (karta → omonat)

Karta hisobidan chiqarish uchun tranzit:

Dt 22621

Kr 17403 «Kartalardan boshqa kartalar yoki omonatlarga hisobdan chiqarilishi lozim bo'lgan mablag'lar bo'yicha tranzit»

Omonatga kirim: Dt 17403

Kr 20206/20406/20606 (mijoz omonati turiga qarab)

7) Kartadagi qoldiq bo'yicha foizlarni hisoblash (agar shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa) Misol: yillik 3% stavka, 1,3 mlrd so'm o'rtacha qoldiq uchun oylik hisob:

$$\text{oylik_foiz} \approx 1\,300\,000\,000 \times 0,03 / 12 = 3\,250\,000 \text{ so'm}$$

Dt 50110 «Jismoniy shaxslarning bank kartalaridagi pul mablag'lari bo'yicha foizli xarajatlar» - 3 250 000

Kr 22621 - 3 250 000

8) Karta xizmati uchun komissiya (bank komissiyani kartadan yechadi)

Dt 22621 (mijozga bo'lgan majburiyat kamayadi)

Kr 45265 «Bank kartalari bo'yicha vositachilik xizmatlari uchun olingan daromadlar».

Mazkur yondashuv bank kartalari orqali shakllanadigan qisqa muddatli va tezkor majburiyatlarni umumiy depozitlardan ajratib ko'rsatadi. Bu esa likvidlik riskini baholash, mijozlar pullarining harakatini monitoring qilish va chakana bank xizmatlari samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

O'zbekiston tijorat banklarida shartli majburiyatlar asosan bank kafolatlari, akkreditivlar, kredit majburiyatlari va boshqa balansdan tashqari operatsiyalar ko'rinishida amalga oshiriladi. Tijorat banklarida shartli majburiyatlar hajmining oshishi bir tomondan bank daromadlarini ko'paytirsa, ikkinchi tomondan risklarning ortishiga sabab bo'ladi. Chunki bank kafolatlari va akkreditivlar bo'yicha komissiya daromadlari shakllanadi, biroq majburiyatlar bajarilmagan holatlarda bank zimmasiga qo'shimcha moliyaviy yuk tushishi mumkin.

Shartli majburiyatlar hajmining ortishi bankning komission daromadlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq ushbu operatsiyalar bo'yicha risklarni yetarli darajada nazorat qilmaslik kelajakda moliyaviy yo'qotishlar ehtimolini oshiradi. Shu bois shartli majburiyatlarni boshqarishda "daromadlilik-risk" tamoyiliga asoslangan yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, O'zbekiston tijorat banklarida shartli majburiyatlar hisobi va auditini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilar taklif etiladi: MHXS talablari asosida shartli majburiyatlarni baholash metodikasini ishlab chiqish; bank kafolatlari va akkreditivlar bo'yicha alohida risk reyting tizimini joriy etish; shartli majburiyatlar monitoringini avtomatlashtirilgan platformalar orqali amalga oshirish; ichki audit dasturlarida balansdan tashqari operatsiyalar ulushini kengaytirish; bank xodimlarining shartli majburiyatlar bo'yicha malakasini muntazam oshirib borish; xalqaro moliya institutlari tajribasini milliy amaliyotga tatbiq etish.

«Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish masalalari» deb nomlangan ishning uchinchi bobida banklarda majburiyatlar ichki auditini tashkil qilish, tijorat banklarida majburiyatlar hisobini takomillashtirish, tijorat banklarida majburiyatlar ichki auditini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

Ichki audit bank korporativ boshqaruv tizimining muhim elementi hisoblanib, bank faoliyatining qonunchilik va ichki me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini baholash, ichki nazorat tizimi samaradorligini tekshirish, risklarni boshqarish jarayonlarini takomillashtirish hamda moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta'minlashga xizmat qiladi. Xalqaro Ichki Auditorlar Instituti (The Institute of Internal Auditors - IIA) ta'rifiga ko'ra, ichki audit tashkilot faoliyatini takomillashtirish va unga qo'shimcha qiymat yaratishga qaratilgan mustaqil va obyektiv kafolat hamda maslahat berish faoliyatidir¹⁷.

¹⁷The Institute of Internal Auditors (IIA). International Standards for the Professional Practice of Internal Auditing.

Bank majburiyatlari ichki auditining asosiy maqsadi bank tomonidan jalb qilingan mablag'lar, depozitlar, banklararo qarzlar, xalqaro moliya institutlari kreditlari, chiqarilgan obligatsiyalar va boshqa majburiyatlarning to'g'ri hisobga olinganligini hamda moliyaviy hisobotlarda haqqoniy aks ettirilganligini baholashdan iborat. Mazkur audit jarayonida majburiyatlarning mavjudligi, to'liqligi, qonuniyligi, baholanishi va ochiqqlanishi tekshiriladi.

Bank majburiyatlari auditining obyektlari quyidagilar hisoblanadi: talab qilib olinguncha depozitlar; muddatli depozitlar; jamg'arma depozitlari; banklararo kreditlar; Markaziy bank kreditlari; xalqaro moliya institutlari kreditlari; obligatsiyalar va boshqa qarz instrumentlari; hisoblangan foizlar bo'yicha majburiyatlar; shartli majburiyatlar va kafolatlar.

Fikrimizcha, tijorat banklarida majburiyatlar auditini tashkil qilishda riskga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Chunki barcha majburiyatlar bir xil risk darajasiga ega emas. Masalan, xalqaro moliya institutlari kreditlari bo'yicha risk darajasi bilan talab qilib olinguncha depozitlar bo'yicha risk darajasi bir xil bo'lmaydi.

Majburiyatlar auditining samaradorligini oshirish maqsadida audit jarayonining rejalashtirish, dalil to'plash, baholash va yakuniy xulosa berish bosqichlarida ichki auditorlar hamda manfaatdor tomonlar o'rtasida axborot almashinuvining izchilligi, tezkorligi va ishonchliligini ta'minlovchi kommunikatsiya mexanizmini joriy etish taklif etiladi.

Mazkur taklifning mohiyati audit jarayonini faqat tekshiruv va hisobot tayyorlash vositasi sifatida emas, balki auditorlar va manfaatdor tomonlar o'rtasidagi uzluksiz axborot almashinuvi tizimi sifatida tashkil etishdan iborat. Bunda auditning har bir bosqichida kommunikatsiya kanallari, axborot almashinuvi tartibi va javobgar shaxslar aniq belgilanadi.

Taklif etilayotgan mexanizm quyidagi tarkibiy elementlarni o'z ichiga oladi: audit boshlanishidan oldin manfaatdor tomonlar bilan rejalashtirish uchrashuvlarini o'tkazish; audit davomida oraliq axborotlarni muntazam taqdim etish; aniqlangan muhim kamchiliklar bo'yicha tezkor xabardor qilish tizimini joriy etish; audit natijalari bo'yicha yakuniy muhokamalar o'tkazish; tavsiyalar ijrosini elektron monitoring qilish; auditorlar, risk-menejerlar va bank rahbariyati o'rtasida doimiy kommunikatsiya platformasini yaratish.

Demak, auditning barcha bosqichlarida samarali kommunikatsiyani ta'minlash bo'yicha ishlab chiqilgan taklif ichki audit metodologiyasini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, auditorlik faoliyatining natijadorligini oshirish, audit risklarini kamaytirish va banklarda korporativ boshqaruv sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Mazkur ilmiy yangilikning asosiy jihati shundaki, unda kommunikatsiya auditning yakuniy bosqichiga tegishli yordamchi jarayon sifatida emas, balki audit samaradorligini belgilovchi mustaqil boshqaruv mexanizmi sifatida talqin qilinadi.

hamda uni auditning barcha bosqichlarida qo'llashning tashkiliy-uslubiy asoslari ishlab chiqiladi.

Dunyo miqyosida iqlim o'zgarishi, energiya resurslaridan oqilona foydalanish va uglerod chiqindilarini kamaytirish masalalari iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mazkur jarayon moliya sektorida ham yangi moliyaviy instrumentlar va maxsus hisob mexanizmlarining shakllanishiga olib keldi. Xususan, "yashil iqtisodiyot", "yashil moliyalashtirish" va "barqaror rivojlanish" konsepsiyalari bank tizimida ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun alohida moliyaviy infratuzilmani yaratishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston tijorat banklari amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, "yashil energiya" loyihalari sonining ortib borishi mazkur yo'nalishga yo'naltirilayotgan moliyaviy resurslarni alohida hisobga olish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, quyosh panellari, energiya tejovchi texnologiyalar, shamol elektr stansiyalari va boshqa qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga yo'naltirilayotgan mablag'larning maqsadli ishlatilishini nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot doirasida tijorat banklarida mijozlarning "yashil energiya" loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lari harakati ustidan maqsadli nazoratni kuchaytirish, ularning manbasi va sarflanish yo'nalishlarini alohida hisobda yuritish maqsadida 22648 - "Mijozlarning yashil energiya loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha mablag'lari" balans hisobvarag'ini yuritish taklif etiladi.

Mazkur hisobvaraqda quyidagi mablag'lar hisobga olinishi maqsadga muvofiq hisoblanadi: quyosh energetikasi loyihalarini moliyalashtirish uchun jalb qilingan mablag'lar; shamol energetikasi loyihalariga yo'naltirilgan mablag'lar; energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish uchun ajratilgan mablag'lar; xalqaro moliya institutlarining yashil moliyalashtirish liniyalari; ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun jalb etilgan boshqa maqsadli mablag'lar.

22648-sonli balans hisobvarag'ining joriy etilishi yashil energiya loyihalariga yo'naltirilgan mablag'lar ustidan alohida nazorat o'rnatiladi, mablag'lar harakati bo'yicha shaffof axborot shakllantiriladi, banklarda yashil moliyalashtirish bo'yicha alohida statistik ma'lumotlar bazasi yaratiladi, xalqaro moliya institutlari talablariga mos hisobotlarni shakllantirish imkoniyati paydo bo'ladi, ekologik loyihalar samaradorligini monitoring qilish sifati oshadi, banklarning ESG (Environmental, Social and Governance) ko'rsatkichlarini baholash imkoniyatlari kengayadi.

22648 - "Mijozlarning yashil energiya loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha mablag'lari" balans hisobvarag'i bank buxgalteriya hisobi balans hisobotlarining passiv (majburiyatlar) turiga kiradi va maqsadli/muayyan shartlar bilan jalb qilingan mijoz mablag'larini aks ettiradi. 22648 - bu bankning jalb qilingan (maqsadli) mablag'i bo'lgan majburiyat hisobvarag'i; u kredit portfeliga to'g'ridan-to'g'ri kirmaydi, lekin portfelni moliyalashtirish manbayi sifatida uning hajmi, narxlashini va tuzilmasini bevosita belgilaydi. Yanada ochiqroq tushuntiradigan bo'lsak, moliyalashtirish manbayi - 22648 dagi mablag'lar hisobidan «yashil energiya» loyihalariga kreditlar beriladi. Shuning uchun portfel hajmi ko'pincha ushbu liniya

limiti va shartlari bilan cheklanadi. Ushbu hisob bo'yicha mablag' narxi (foiz/komissiya) kredit stavkasining asosi bo'ladi. Risklar taqsimoti bo'yicha kredit riski kredit portfelida qoladi; 22648 bo'yicha esa asosan likvidlik/foiz/valyuta va «maqsadli ishlatish» risklari mavjud bo'ladi. Shartnoma shartlari buzilsa, mablag'ni qaytarish talabi yoki jarima qo'llanilishi mumkin.

Quyida 22648-hisobraqam bo'yicha buxgalteriya o'tkazmalariga misol ko'rib chiqamiz: Tijorat bankiga «Mijozlarning yashil energiya loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha mablag'lari» maqsadi bo'yicha mablag' kelib tushdi (majburiyat oshadi): Dt Kassa/Nostro/MB hisobvaraqlari

Kt 22648

Shartnomaga asosan maqsadli mablag' qaytarildi/yo'naltirildi (majburiyat kamayadi): Dt 22648

Kt Mijoz hisobi/Kassa/Kliring

Agar komissiya ushlab qolinsa: Dt 22648

Kt 452xx (komission/foizsiz daromadlar)

Agar foiz to'lansa (shartnomaga ko'ra):

Dt 5xxx tegishli foiz xarajatlari

Kt Mijoz hisobi (yoki 22648 tarkibida hisob-kitob)

Bog'liq hisobvaraqlar va kuzatuv 22646 (mijozlarning investitsiya mablag'lari), 22696 (boshqa depozitlar bo'yicha m/h), 232xx (kliring), 298xx (boshqa m/lar) - oqimlar kesimini bog'lab tahlil qilinadi.

Maqsadli mablag'lar kredit bo'yicha moliyalashtirilganda hisob-kitob oqimi quyidagicha bo'ladi:

Mablag' kelganda: Dt Kassa/Nostro

Kt 22648

Kredit ajratilganda: Dt Kreditlar (17xxx/18xxx)

Kt Kassa/Nostro

22648 bo'yicha foiz xarajati: Dt Foiz xarajatlari

Kt 22648 (yoki mijoz hisobi)

Kredit foizi: Dt Mijoz hisobraqami

Kt Foiz daromadi

Yashil kreditlarni alohida hisobga olish bank kredit portfelida ekologik loyihalar ulushini aniqlash, ESG hisobotini shakllantirish, ekologik risklarni baholash va investorlar uchun shaffof axborot bazasini yaratishga xizmat qiladi.

8-jadval ma'lumotlari "Asakabank" AJ faoliyatida kreditlash hajmi va yashil moliyalashtirish yo'nalishlari bo'yicha ijobiy tendensiyalar shakllanayotganligini ko'rsatadi. Tahlil natijalariga ko'ra, bankning kredit portfeli 2021-yildagi 37 695 mlrd so'mdan 2025-yilda 43 067 mlrd so'mga yetib, 5 372 mlrd so'mga yoki 14,3 foizga oshgan. Mazkur holat bankning iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirishdagi faolligi ortib borayotganligini hamda resurs bazasidan samarali foydalanayotganligini ko'rsatadi.

8-jadval

«Asakabank» AJ kredit portfeli va yashil moliyalashtirish ko'rsatkichlari tahlili (mlrd. so'm)¹⁸

Ko'rsatkich	2021	2025	O'zgarish	Izoh
Kredit portfeli, mlrd so'm	37 695	43 067	+5 372	Bank kredit portfeli hajmi kengaygan
O'sish sur'ati, %	100	114,3	+14,3	2021 yilga nisbatan
Tasdiqlangan yashil moliyalashtirish liniyasi	-	30 mln AQSh dollari	-	Energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini moliyalashtirish uchun
Moliyalashtirish yo'nalishi	-	Energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energiya	-	Mablag'lar mos subloyihalarga yo'naltiriladi
Ekologik-ijtimoiy risklarni boshqarish	-	ESMS asosida	-	Kreditlar E&S mezonlari bo'yicha saralanadi va monitoring qilinadi

Majburiyatlarning to'g'ri hisobga olinishi va mustaqil auditorlik tekshiruvidan o'tkazilishi bank tizimining barqaror faoliyat yuritishida, risklarni aniqlash va ularni kamaytirishda, shuningdek, investorlarga ishonchli axborot taqdim etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, majburiyatlar auditini takomillashtirish masalasi nafaqat milliy moliya tizimining rivojlanishi, balki xalqaro moliya standartlariga moslashuv darajasi bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Ichki audit tizimi faqat nazorat funksiyasi bilan cheklanib qolmasdan, bank boshqaruvi, risk menejmenti va axborot almashinuvi jarayonlarini o'zaro bog'lovchi integratsiyalashgan mexanizm sifatida faoliyat yuritishi lozim. Zamonaviy yondashuvda ichki audit nafaqat xatolarni aniqlovchi vosita, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim axborot manbai sifatida namoyon bo'ladi.

9-jadval

«Asakabank» AJda ichki audit tizimini samarali kommunikatsiya qilishning qiyosiy tahlili¹⁹

Yo'nalish	An'anaviy yondashuv	Taklif etilgan yondashuv
Ichki audit	Tekshiruvga yo'naltirilgan	Boshqaruvga axborot beruvchi tizim
Risklar	Aniqlangandan keyin baholanadi	Oldindan monitoring qilinadi
Hisobotlar	Kechikib taqdim etiladi	Tezkor kommunikatsiya asosida yuritiladi
Natija	Nazorat	Nazorat + tavsiya + boshqaruv qarori

9-jadvalda "Asakabank" AJda ichki audit tizimini tashkil etishning amaldagi va taklif etilayotgan kommunikatsion yondashuvlari qiyosiy tahlil qilingan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy bank amaliyotida ichki audit faqat nazorat

¹⁸«Asakabank» AJ yillik hisobotlari, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD) hamda bankning yashil moliyalashtirish dasturlari bo'yicha ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

¹⁹The Institute of Internal Auditors (IIA) Global Internal Audit Standards (2024), Basel Committee on Banking Supervision (2012) tavsiyalari hamda tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

funksiyasini bajaruvchi tekshiruv organi emas, balki bank boshqaruviga axborot va tavsiyalar beruvchi muhim boshqaruv instrumentiga aylanib bormoqda.

Ichki auditda samarali kommunikatsiya tizimini joriy etish risklarni erta aniqlash, audit natijalarining amaliy ahamiyatini oshirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu sababli tijorat banklarida an'anaviy nazoratga yo'naltirilgan audit modelidan tezkor axborot almashinuvi va risklarni oldindan monitoring qilishga asoslangan zamonaviy audit modeliga o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Banklarda soliq majburiyatlarini hisoblash jarayoni moliyaviy natijalar ishonchliligi, sof foyda yoki zarar miqdori hamda kapital yetarliligi ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli soliq majburiyatlarini faqat buxgalteriya hisobining texnik elementi sifatida emas, balki bank moliyaviy boshqaruvining muhim tarkibiy qismi sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

10-jadval

«Asakabank» AJda soliq xarajatlari va moliyaviy natijalar dinamikasi tahlili²⁰

Ko'rsatkich	2024	2025	Iqtisodiy mazmuni
Foyda solig'i xarajati / daromadi, mlrd so'm	+120,8	-14,7	Soliq hisob-kitoblarining moliyaviy natijaga ta'siri kuchaygan
Sof foyda / zarar, mlrd so'm	-439,1	31,8	2025-yilda bank faoliyatida foyda shakllangan
Soliq risklarini baholash zarurati	O'rtacha	Yuqori	Zarar sharoitida soliq aktivlari va majburiyatlarini aniq hisoblash muhim
Taklif etilgan yondashuv	Ichki hisob-kitob	Mustaqil soliq maslahatchisi ekspertizasi	Soliq xatolari va ortiqcha to'lovlar kamayadi

10-jadval ma'lumotlari «Asakabank» AJda 2024-2025-yillarda soliq xarajatlari va moliyaviy natijalar dinamikasining tahlili bank faoliyati samaradorligiga soliq hisobining ta'siri sezilarli darajada oshganligini ko'rsatadi. Xususan, 2024-yilda foyda solig'i bo'yicha xarajatlar 120,8 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda mazkur ko'rsatkich 14,7 mlrd so'm miqdoridagi soliq daromadiga aylangan. Bu holat bankning moliyaviy natijalari va soliq hisob-kitoblari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kuchayganligini anglatadi. Tahlil natijalariga ko'ra, bank 2024-yilda 439,1 mlrd so'm miqdorida zarar bilan faoliyat yuritgan bo'lsa, 2025-yilda moliyaviy natijalar yaxshilanib, 31,8 mlrd so'm miqdorida sof foyda shakllangan. Bu esa bankning daromadlilik ko'rsatkichlari tiklana boshlaganligini, biroq moliyaviy natijalarning soliq hisobiga ta'siri yuqori darajada saqlanib qolayotganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, zararli faoliyat sharoitida kechiktirilgan soliq aktivlari va majburiyatlarini to'g'ri baholash, soliq risklarini o'z vaqtida aniqlash hamda ularni boshqarish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Tahlil qilinayotgan davrda soliq risklari darajasining o'rtachadan yuqori darajagacha oshishi bankda soliq hisobini tashkil etish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

²⁰«Asakabank» AJning 2024-2025 yillar moliyaviy hisobotlari, IAS 12 "Income Taxes" standarti hamda tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Zarar yuzaga kelgan sharoitda kechiktirilgan soliq aktivlari, vaqtinchalik farqlar va soliq majburiyatlarini to‘g‘ri hisoblash masalalari yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki soliq hisob-kitoblaridagi xatoliklar moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarining buzilishiga, soliq risklarining ortishiga va nazorat organlari bilan bog‘liq qo‘shimcha xarajatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Soliq hisobi va soliq risklarini baholash jarayonlariga mustaqil soliq maslahatchilarini jalb etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu yondashuv soliq qonunchiligi talablariga rioya etilishini kuchaytirish, ortiqcha soliq to‘lovlarini kamaytirish hamda soliq risklarini samarali boshqarish imkonini beradi. Ayniqsa, murakkab moliyaviy instrumentlar, kechiktirilgan soliqlar va xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bilan bog‘liq operatsiyalar bo‘yicha mustaqil ekspertiza muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, bank faoliyatida zarar yuzaga kelishi soliq hisobi va kechiktirilgan soliq aktivlarini baholashning ahamiyatini oshirgan. Shu sababli soliq risklarini boshqarish tizimini kuchaytirish, ichki audit jarayonlariga soliq ekspertizasini integratsiyalash va murakkab soliq masalalari bo‘yicha mustaqil maslahatchilar xizmatidan foydalanish bank moliyaviy natijalarining ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi.

11-jadval

«Asakabank» AJda mustaqil ekspertisasi asosida baholash yo‘nalishlari ²¹

Yo‘nalishlar nomi	Kutilayotgan natija
Soliq majburiyatlari	To‘g‘ri va asosli hisob-kitob qilinadi
Soliq risklari	Jarima, penya va ortiqcha to‘lov xavfi kamayadi
Moliyaviy hisobot	Soliq moddalari shaffofligi oshadi
Bank xarajatlari	Soliq xarajatlari optimallashtiriladi
Boshqaruv qarorlari	Soliq yukining moliyaviy natijaga ta’siri aniq baholanadi

11-jadvalda “Asakabank” AJda soliq masalalarini mustaqil ekspertiza asosida baholashning asosiy yo‘nalishlari va kutilayotgan natijalari keltirilgan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, bank faoliyatida soliq majburiyatlarini to‘g‘ri hisoblash va soliq risklarini samarali boshqarish moliyaviy natijalarning ishonchliligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil ekspertiza soliq majburiyatlarini amaldagi soliq qonunchiligi va moliyaviy hisobot standartlari talablariga muvofiq ravishda baholash imkonini beradi. Natijada soliq hisob-kitoblarining to‘g‘riligi va asoslanganlik darajasi oshadi, moliyaviy hisobotlarda soliqqa oid ko‘rsatkichlarning haqqoniy aks ettirilishiga xizmat qiladi. Soliq risklarini baholash yo‘nalishi bo‘yicha mustaqil ekspertiza qo‘llanilishi natijasida jarima, penya va qo‘shimcha soliq hisoblash xavfi kamayadi. Bu esa bankning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va kutilmagan xarajatlarning oldini olish imkonini beradi.

Moliyaviy hisobot nuqtai nazaridan mustaqil ekspertiza soliq moddalari bo‘yicha axborotlarning shaffofligi va ishonchliligini oshiradi. Ayniqsa, kechiktirilgan soliq aktivlari va majburiyatlari, vaqtinchalik farqlar hamda

²¹IAS 12 “Income Taxes», OECD Tax Risk Management Guidelines, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi hamda tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

murakkab soliq operatsiyalarining to'g'ri aks ettirilishi investorlar va nazorat organlari uchun muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, mustaqil soliq ekspertizasidan foydalanish bank xarajatlarini optimallashtirishga xizmat qiladi. Soliq rejalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va amaldagi imtiyozlardan oqilona foydalanish orqali ortiqcha xarajatlarni kamaytirish imkoniyati yaratiladi.

Xalqaro amaliyotda yirik banklar va moliyaviy institutlarda ichki audit tekshiruvlari davomida soliq maslahatchilari, yuridik ekspertlar va boshqa tor soha mutaxassislaridan foydalanish keng qo'llaniladi. Bunda ekspertlar auditorlarga murakkab masalalar yuzasidan mustaqil xulosa beradi, risklarni baholashda ishtirok etadi va audit dalillarining ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha majburiyatlar auditining sifatini oshirish, hisob-kitoblar to'g'riligi va soliq xavflarini xolis baholash maqsadida mazkur audit jarayoniga mustaqil ekspert - soliq maslahatchisini jalb etishning maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Fikrimizcha, ichki audit jarayonlarida mustaqil soliq maslahatchisini jalb etish natijasida soliq majburiyatlari hisobining aniqligi oshadi, soliq risklari o'z vaqtida aniqlanadi, moliyaviy hisobotlarda soliqlar bo'yicha axborotlarning ishonchliligi kuchayadi, ichki audit xulosalarining sifati yaxshilanadi, bankning soliq qonunchiligiga rioya etish darajasi ortadi, ehtimoliy moliyaviy sanksiyalar va jarimalar xavfi kamayadi.

Demak, ichki auditorlik tekshiruvlarida mustaqil ekspert - soliq maslahatchisi xizmatidan foydalanish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif banklarda majburiyatlar auditini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha majburiyatlarning to'g'ri hisoblanishi hamda moliyaviy hisobotlarda haqqoniy aks ettirilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur ilmiy yangilikning asosiy jihati shundaki, unda ichki audit tizimida soliq ekspertizasining institutsional elementi sifatida mustaqil soliq maslahatchisini jalb etishning tashkiliy-uslubiy asoslari ishlab chiqilgan. Bu esa banklarda soliq risklarini boshqarish tizimini takomillashtirish, ichki audit samaradorligini oshirish va moliyaviy hisobotlar ishonchliligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Dissertatsiya doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi.

1. Bank majburiyatlarining iqtisodiy mohiyati va ularning bank faoliyatidagi o'rnini o'rganish natijasida bank majburiyatlarini nafaqat jalb qilingan moliyaviy resurslar manbai, balki bankning moliyaviy barqarorligi, likvidligi, to'lovga qobiliyatliligi va risk darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim iqtisodiy kategoriya sifatida baholash zarurligi asoslandi.

2. Bank majburiyatlarini tasniflashning takomillashtirilgan yondashuvi ishlab chiqilib, ularni iqtisodiy mazmuni, shakllanish manbalari va risk darajasiga ko'ra guruhlash zarurligi asoslandi. Natijada bank majburiyatlari tarkibidagi boshqa majburiyatlar bo'yicha axborotlarning ochiqqligi va ishonchliligi oshadi, moliyaviy

hisobotlarning xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi ta'minlanadi hamda bank faoliyatini tahlil qilish va risklarni baholash imkoniyatlari kengayadi.

3. Tijorat banklarida depozit operatsiyalarini hisobga olish amaliyoti tahlili natijasida barcha turdagi depozitlarni nohosilaviy moliyaviy vositalar sifatida tasniflash va amortizatsiyalanadigan qiymat bo'yicha hisob registrlarida aks ettirish lozimligi asoslandi. Ushbu yondashuv depozitlar bo'yicha haqiqiy foiz xarajatlarini aniq hisoblash va moliyaviy natijalarni ishonchli aks ettirishga xizmat qiladi.

4. Tijorat banklari faoliyatini tahlil qilish natijasida uzoq muddatli qarz mablag'larini ularning iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib baholash va belgilangan talablarga javob beruvchi qarz mablag'larini bank kapitalining ikkilamchi elementi sifatida tasniflash zarurligi asoslandi. Mazkur yondashuv moliyaviy hisobotlarda kapital tarkibining iqtisodiy mohiyatini to'laroq aks ettirish, kapital yetarliligini obyektiv baholash, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash hamda banklarning investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

5. O'zini o'zi band qilgan shaxslarning bank kartalari bilan bog'liq majburiyatlarini buxgalteriya hisobida alohida va shaffof aks ettirish maqsadida 22621 - "O'zini o'zi band qilgan shaxslarning bank kartalari bo'yicha majburiyatlari" nomli maxsus balans hisobvarag'ini joriy etish taklif qilindi. Mazkur taklifning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida 2026-yil 1-yanvar holatiga 10 526 dona bank kartalari bo'yicha 1,3 mlrd so'mlik majburiyatlar alohida hisobga olinib, majburiyatlar tarkibi bo'yicha axborotlarning shaffofligi va tahliliy imkoniyatlari kengaytirildi.

6. tijorat banklarida mijozlarning "yashil energiya" loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lari harakati ustidan maqsadli nazoratni kuchaytirish, ularning manbasi va sarflanish yo'nalishlarini alohida hisobda yuritish maqsadida 22648 - "Mijozlarning yashil energiya loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha mablag'lari" balans hisobvarag'ini yuritish lozimligi asoslandi. Mazkur hisobvaraqa yashil moliyalashtirish mablag'lari harakati ustidan samarali nazorat o'rnatish imkonini beradi.

7. Majburiyatlar auditining samaradorligini oshirish maqsadida audit jarayonining rejalashtirish, dalil to'plash, baholash va yakuniy xulosa berish bosqichlarida ichki auditorlar hamda manfaatdor tomonlar o'rtasida axborot almashinuvining izchilligi, tezkorligi va ishonchliligini ta'minlovchi kommunikatsiya mexanizmi taklif qilindi

8. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha majburiyatlar auditining sifatini oshirish, hisob-kitoblar to'g'riligi va soliq xavflarini xolis baholash maqsadida mazkur audit jarayoniga mustaqil ekspert - soliq maslahatchisini jalb etishning maqsadga muvofiqligi asoslandi.

9. Bank majburiyatlari auditida riskka asoslangan yondashuvlardan foydalanish zarurligi asoslandi. Risklarni identifikatsiyalash, baholash va monitoring qilishning takomillashtirilgan mexanizmlarini qo'llash audit resurslaridan samarali foydalanish, muhim xatolarni o'z vaqtida aniqlash va audit sifatini oshirish imkonini beradi.

10. Bank majburiyatlari hisobi va auditini MHXS, xalqaro audit standartlari hamda Bazel qo‘mitasi talablariga muvofiq takomillashtirish zarurligi asoslandi. Natijada moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ishonchliligi oshadi, risklarni boshqarish samaradorligi kuchayadi, banklarning moliyaviy barqarorligi mustahkamlanadi hamda investorlar ishonchini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.I.23.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

МУМИНОВА ПАРВИНА ИЛХОМ КИЗИ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЁТА И АУДИТА ОБЯЗАТЕЛЬСТВ
БАНКА**

08.00.08 - Бухгалтерский учёт, экономический анализ и аудит

АВТОРЕФЕРАТ

**диссертации на соискание учёной степени доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

Ташкент - 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2024.1.PhD/Iqt3823

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации размещен на трёх языках (узбекском, русском и английском (резюме)) на сайте Научного совета (tsue.uz) и Информационно-образовательном портале "Ziyounet" (www.ziyounet.uz).

Научный руководитель:	Умаров Зафар Абсаматович доктор экономических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Ризаев Нурбек Каирович доктор экономических наук, профессор Ибрагимов Абдуганур Каримович доктор экономических наук, профессор
Ведущая организация:	Ташкентский филиал Российского экономического университета имени Г.В.Плеханова

Защита диссертации состоится "10" 08 2026 года в 16⁰⁰ на заседании Научного совета DSe.03/2025.27.12.1.23.01 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете (адрес: 100066, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Телефон: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: tsue@tsue.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (регистрационный номер № 2081). Адрес: 100066, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Телефон: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: tsue@tsue.uz.

Автореферат диссертации разослан «21» 08 2026 года.

(протокол реестра № 63 от «11» 08 2026 года).



С.У. Мехмонов

Председатель Научного совета по
присуждению учёных степеней, доктор
экономических наук, профессор

У.В. Гафуров

Ученый секретарь научного совета по
присуждению учёных степеней, доктор
экономических наук, профессор

С.К. Худойкулов

Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению
учёных степеней, доктор
экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой экономике бухгалтерский учёт и аудит обязательств банков выступают важной информационно-аналитической основой объективной оценки финансовой устойчивости, ликвидности и подверженности коммерческих банков различным рискам. Правильное признание, оценка и прозрачное отражение банковских обязательств в финансовой отчетности способствуют укреплению доверия заинтересованных сторон к депозитам, заемным средствам, межбанковским обязательствам и другим финансовым инструментам. Согласно требованиям МСФО (IFRS) 7 «Финансовые инструменты: раскрытие информации», пользователям финансовой отчетности должна предоставляться информация, позволяющая оценить значение финансовых инструментов для финансового положения и результатов деятельности организации, а также характер и степень связанных с ними рисков.¹ В этой связи аудит обязательств банков оказывает положительное влияние на обеспечение устойчивого функционирования банковского сектора посредством независимой оценки системы внутреннего контроля, качества управления рисками и достоверности финансовой отчетности. Следовательно, научное исследование теоретико-методологических и практических аспектов бухгалтерского учёта и аудита банковских обязательств в условиях глобальных финансовых рынков является актуальным и востребованным.

В мировой практике научные исследования, направленные на совершенствование бухгалтерского учёта и аудита обязательств банков, ориентированы на обеспечение финансовой устойчивости банковского сектора, повышение прозрачности и достоверности финансовой отчетности, а также развитие теоретико-методологических основ своевременного выявления и оценки финансовых рисков. Приоритетными направлениями современных исследований являются совершенствование признания и оценки банковских обязательств в соответствии с международными стандартами финансовой отчетности, повышение надежности аудиторских доказательств по депозитным и долговым обязательствам, совершенствование методов отражения рисков ликвидности и процентного риска в системе учёта и аудита, оценка эффективности систем внутреннего контроля и комплаенса, а также автоматизация аудита обязательств в условиях цифровизации банковских услуг.

В Узбекистане совершенствование бухгалтерского учёта и аудита обязательств банков определено одним из приоритетных направлений развития банковско-финансовой системы на основе международных стандартов. В последние годы реализуется широкий комплекс реформ, направленных на внедрение в коммерческих банках Международных

¹IFRS 7 Financial Instruments: Disclosures. - <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ifrs-7-financial-instruments-disclosures/>

стандартов финансовой отчетности (МСФО), в частности IFRS 9, обеспечение достоверной оценки банковских обязательств, повышение прозрачности и надежности финансовой отчетности, совершенствование внутреннего и внешнего аудита в соответствии с Международными стандартами аудита (МСА), а также усиление системы управления рисками в деятельности банков. Наряду с этим к числу важнейших задач относятся адаптация методологии учёта и аудита банковских обязательств к международным требованиям, широкое внедрение цифровых технологий, повышение эффективности аудиторских проверок и укрепление доверия инвесторов. Эффективная реализация указанных задач требует совершенствования системы учёта и аудита обязательств коммерческих банков на основе международных стандартов, широкого внедрения риск-ориентированных подходов к аудиту, разработки современных механизмов оценки обязательств и повышения достоверности финансовой отчетности. В этой связи проведение научных исследований, направленных на совершенствование бухгалтерского учёта и аудита банковских обязательств, приобретает особую актуальность и практическую значимость.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени способствует реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан: от 16 февраля 2026 года № ПФ-22 «О программах реформ по приоритетным направлениям и Государственной программе по реализации Стратегии «Узбекистан - 2030» в «Год развития махалли и всего общества»»; от 30 января 2025 года № ПФ-16 «О Государственной программе по реализации Стратегии «Узбекистан - 2030» в «Год охраны окружающей среды и «зеленой экономики»»; от 21 февраля 2024 года № ПФ-37 «О Государственной программе по реализации Стратегии «Узбекистан - 2030» в «Год поддержки молодежи и бизнеса»»; от 11 сентября 2023 года № ПФ-158 «О Стратегии "Узбекистан - 2030"»; от 28 января 2022 года № ПФ-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»; от 12 мая 2020 года № ПФ-5992 «О Стратегии реформирования банковской системы Республики Узбекистан на 2020-2025 годы», а также в Постановлении Президента Республики Узбекистан от 24 февраля 2020 года № ПП-4611 «О дополнительных мерах по переходу на Международные стандарты финансовой отчетности» и других нормативно-правовых актах, регулирующих данную сферу.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Настоящее диссертационное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий Республики Узбекистан I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Вопросы организации и совершенствования бухгалтерского учёта и аудита банковских обязательств на протяжении многих лет находятся в центре внимания ученых-экономистов.

Значительный вклад в исследование теоретических и практических аспектов управления, бухгалтерского учёта и аудита банковских обязательств внесли зарубежные ученые, в числе которых J.E.Stiglitz, J.K.Rosengard, P.S.Rose, F.S.Mishkin, J.F.Sinkey, J.J.Weygandt, T.D.Warfield, А.Д.Шеремет, В.В.Ковалев, О.В.Ефимова, В.И.Подольский, Р.К.Ozili, А.К.Nicoletti, L.Rempoutsika, N.Sintin, С.Н.Lim, Т.С.Paul, О.Ю.Кашанова, В.И.Дунаева и другие исследователи². В их научных трудах рассмотрены вопросы управления банковскими обязательствами, методологии их бухгалтерского учёта, оценки, раскрытия информации в финансовой отчетности, а также организации и совершенствования аудита обязательств банков.

Научные исследования, посвященные экономической сущности банковских обязательств, вопросам их бухгалтерского учёта и аудита, управления финансовыми рисками, а также внедрения международных стандартов, проводились отечественными учеными, среди которых Ш.З. Абдуллаева, Ж.Ю.Исаков, А.А.Омонов, Т.М.Коралиев, З.А.Умаров, С.У.Мехмонов, А.К.Ибрагимов, А.З.Авлокулов, А.М.Рахимов, З.А.Абдуллаев, Б.Н.Муйдинов, С.К.Махмудов, Ф.Ш.Очилов, М.П.Оромидинов, Б.Н.Сайфутдинов и другие³. В их научных трудах исследованы теоретические, методологические и практические аспекты организации бухгалтерского учёта и аудита банковских обязательств, оценки и управления финансовыми

² Stiglitz J.E., Rosengard J.K. Economics of the Public Sector. – 4th ed. – New York: W.W. Norton & Company, 2015. – 960 p.; Rose P.S., Hudgins S.C. Bank Management and Financial Services. – 10th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2013. – 672 p.; Mishkin F.S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. – 13th ed. – Harlow: Pearson Education Limited, 2021. – 720 p.; Sinkey J.F. Commercial Bank Financial Management in the Financial Services Industry. – 6th ed. – New Jersey: Prentice Hall, 2002. – 920 p.; Sheremet A.D. Audit. – 8-e izd. – Moskva: INFRA-M, 2021. – 448 s.; Kovalev V.V. Finansoviy analiz: metodi i protseduri. – Moskva: Finansi i statistika, 2019. – 560 s.; Efimova O.V. Finansoviy analiz. – Moskva: Omega-L, 2018. – 399 s.; Podolskiy V.I. Audit. – Moskva: YuNITI-DANA, 2020. – 687 s.; Ozili P.K. Bank Loan Loss Provisions, Income Smoothing, Signalling and Procyclicality in African Banks: PhD Thesis. – University of Essex. – Colchester, 2017. – 273 p.; Nicoletti A.K. The Effects of Bank Regulators and External Auditors on Loan Loss Provisions: Doctoral Research Paper (dissertation chapter). – Ohio State University. – Columbus, 2016.; Rempoutsika L. Bank Transparency, Loan Loss Provisions and Financial Stability: PhD Thesis. – University of St Andrews. – St Andrews, 2022. – 284 p.; Sintin N. Banking Performance, Accounting Transparency and IFRS Application: Doctoral Thesis. – “1 Decembrie 1918” University of Alba Iulia. – Alba Iulia, 2023. – 312 p.; Lim C.H. Essays on Bank Accounting, Loan Loss Provisions and Debt Contracting: PhD Thesis. – University of Manchester. – Manchester, 2012. – 235 p.; Paul T.S. Transparency and Safe Debt Creation: PhD Dissertation. – University of Pennsylvania. – Philadelphia (PA), 2021. – 66 p.; Kashanova O.Yu. Vnutrenniy audit v kommercheskom banke: dis. kand. ekon. nauk. – Moskva, 2002. – 210 s.; Dunaeva V.I. Vnutrenniy audit v kommercheskom banke: dis. kand. ekon. nauk. – Moskva, 2001. – 195 s.

³ Abdullayeva Sh. Z. Bank ishi. Darslik. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2017. – 732 b.; Isakov J.Y. Bank risklari. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2017. – 100 b.; Omonov A, Qoraliev T.M. Babklarda buxgalteriya hisobi. Darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2014. – 241 b.; Mehmonov S.U. Byudjet tashkilotlarida ichki audit faoliyatining nazariy hamda amaliy jihatlari // Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansi. 2015. №10.; Z.A.Umarov, A.K.Ibragimov, A.Z.Avlokulov, A.M.Rahimov – Bank auditi metodologiyasi / Darslik – T.: «Nihol print» OK, 2022. – 480 b.; Umarov Z.A., Ibragimov A.K., Rizaev N.K., Marpatov M.D. Banklarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Darslik / – T.: «Iqtisod-Moliya», 2019 yil, - 516 b.; Abdullaev Z.A. Tijorat banklari faoliyatini soliqqa tortishni takomillashtirish: iqtisod fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2020.; Muiyidinov B.N. Aksiyadorlik jamiyatlarida bank kreditlari bo‘yicha operatsiyalar hisobi va auditini takomillashtirish: i.f.n. dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2002. – 22 b.; Maxmudov S.Q. Aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlar hisobi va tahlilini takomillashtirish (ip-yigiruv korxonalar misolida): i.f.n. dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2006. – 22 b.; Sayfutdinov B.N. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotni tuzish va auditini takomillashtirish. PhD dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2023. – 59 b.; Oromidinov M.P. “Tijorat banklarida ichki auditni takomillashtirish» PhD dissertatsiya avtoreferati. –T.: 2025; Ochilov F.Sh. «Aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlar hisobi va audit metodologiyasini takomillashtirish» DSc dissertatsiya avtoreferati. –T.: 2025

рисками, а также применения Международных стандартов финансовой отчетности и Международных стандартов аудита в банковской деятельности.

Несмотря на то, что в указанных исследованиях достаточно подробно освещены теоретические и практические аспекты бухгалтерского учёта и аудита обязательств коммерческих банков, вопросы оценки банковских обязательств на основе международных стандартов, совершенствования механизмов риск-ориентированного аудита, организации мониторинга с использованием цифровых технологий, а также оптимизации структуры банковских обязательств до настоящего времени не получили комплексного научного исследования. Вместе с тем проводимые реформы банковской системы Республики Узбекистан и усиление требований международных стандартов финансовой отчетности и аудита обуславливают необходимость дальнейших научных исследований, направленных на совершенствование методологии бухгалтерского учёта и аудита банковских обязательств в современных условиях.

